Misr va Rossiya Federatsiyasi gen nokaut texnologiyasi uchun patent berdi

Misr va Rossiya Federatsiyasi o‘zbek olimlari tomonidan gen nokaut texnologiyasi asosida yaratilgan paxta naviga patent berdi. Ushbu mamlakatlar tomonidan patentlarning berilishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazining yuqori texnologiyalar sohasida erishgan yutuqlarining yana bir e’tirofidir. Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston olimlarining xorijda zamonaviy innovatsion texnologiyalarga patent olishi respublikamizning ulkan ilmiy salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Avvalroq AQSH patent va tovar belgilari idorasi tomonidan o‘zbek olimlarining ushbu innovatsion texnologiyasiga patent berilgan. Patent berilishi xalqaro darajada texnologiyalarni litsenziyalash imkoniyatini ochadi va nafaqat tovarlar eksporti uchun, balki intellektual mulkdan ham daromad olish imkoniyatini beradi.

Ma’lumot uchun:

Ushbu texnologiya o‘zbek olimlari tomonidan 2008-yilda ishlab chiqilgan va O‘zbekiston hukumati ko‘magi bilan keyingi tadqiqotlar texnologiyalar asosida “Porloq” navining yuqori mahsuldor, erta pishar, qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga chidamli biotexnologik paxta navlarini yaratishga olib keldi. O‘simliklarning seleksiya va genetik muhandisligi bo‘yicha jahon tarixida bo‘lmagan ushbu texnologiya bir vaqtning o‘zida paxtaning bir qancha qimmatbaho agronomik xususiyatlarini yaxshilash imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda “Porloq” navlari tolasi odatdagidan ko‘ra 12% qimmatroq narxda sotiladi va ular jahon bozorida juda yuqori talabga ega. 2018-yilda butun respublikamiz bo‘ylab 60 ming gektardan ortiq maydonda “Porloq” navining urug‘lari ekilgan va bunday ekin maydonlarini yanada kengaytirish kutilmoqda.